



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



№7
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 356 sahifa,
1-iyul, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Umarova H. O'. – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti rektori

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik

Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik

Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor

Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor

Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor

Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor

Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor

Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)

Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)

Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)

Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)

Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)

Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent

Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor

Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor

Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor

G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)

Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti

Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor

Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)

Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston

Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)

Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent

Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori

Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari

Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Umarova H. O'. – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Rector of the Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G' B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Konvergent tahririyat mas'uliyati: Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonini yoritish tendensiyalari	16
Doniyorov Salim Musurmonovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy bilimlarini shakllantirish.....	23
Nazarov Odil Omanqulovich	
"Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"da ijtimoiy-pedagogik hamkorlikning o'rni	27
Abirova Umida Nazarovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda uchraydigan nutq nuqsonlarini oldini olish va uning ahamiyati.....	30
Akramov Dostonbek Ikromjon o'g'li	
Pedagogik jarayonda axloqiy qarashlarni shakllantirish usul va vositalari	34
Xudoykulova Shaxlo Mamaniyozovna	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining ijodkorligini rivojlantirishda ta'limiy o'yinlarning ahamiyati	38
Salimova Dilmira Farxodovna	
Aholining iqtisodiy axborot savodxonligini oshirishdagi muammo va kamchiliklar	41
Rajabov Asliddin Xolmirzayevich	
Favqulodda vaziyatlar yo'nalishi ta'limida muloqotning ahamiyati.....	44
Boltayev Baxtiyor Yunusovich	
Biologiya ta'limi va raqamli texnologiyalar	48
E. Po'latova	
Boshlang'ich ta'limga tayyorlov guruhi bolalarini kasbga yo'naltirishda stem yondashuvining ahamiyati ...	51
Egamova Ravshanoy Surobjonovna	
O'zbekiston TIMSS natijalarini qanday yaxshilashi mumkin? Innovatsion ta'lim yondashuvlari va samarali strategiyalar.....	55
G'ayniddinov Shayxislom Tolibjon o'g'li	
Nutq kamchiliklarini bartaraf etishda mutaxassislar hamkorligi	60
Isayeva Mushtariy Alisher qizi	
Developing Student's Critical Skills Through Technology-Enhanced English Lessons	63
Mavlonova Dildora Shuxrat qizi	
Bahrom Ro'zimuhammad she'rlarini o'qitishda integratsiya usulidan foydalanish	67
Nomozova Dilobar Suyun qizi	
Aksiologik yondashuvlar asosida bo'lajak pedagoglarda altruizm ko'nikmalarini shakllantirish: bosqichlar va tamoyillar	72
Norboyeva Moxigul Shavkat qizi	
3D Modeling of Virtual Chemical Laboratories	75
Qayumov Jamshid Ma'rufjon o'g'li	
Fostering Metacognitive Skills in Efl Learners Through Ai-Supported Instruction: a Review of Recent Literature	80
Ruzieva Maftuna	
Onlayn va gibrid ta'lim sharoitida mashinasozlik texnologiyasi faniga qiziqishni oshirishning nazariy asoslari.....	85
Sarimsakova Soxibaxon Raxmonjanovna	
Loyihalashtirilgan integral darslar samaradorligi (9-sinflar uchun "Metallar va ularning umumiy xususiyatlari" mavzusida).....	88
Sharipova Hakima Shavkatovna	
Metacognition and Self-Regulated Learning	92
Turayeva Nazira Ibragimovna	
Методические возможности совершенствования обучения научной письменной речи на основе коммуникативно-деятельностного подхода	95
Меденцева Наталья Петровна	
Transformatsion jarayonlarda tibbiyot oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari	100
Jonibekov Jasur Jonibekovich	



O'zbek milliy musiqasi: boy madaniyat va san'atning ajralmas qismi.....	105
Rustamova Maxsuma Farxodbek qizi	
Sharq va G'arbda tibbiyot fanlarining yaratilishi tarixi.....	108
Bakayev Najmiddin	
Didaktik o'yinlar bola faoliyatining asosiy vositasi sifatida.....	112
Egamova Madina Qobil qizi	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalarining konvergent-kreativ tafakkurini takomillashtirishning didaktik asoslari.....	116
Egamova Shukriya Amanovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida universal ta'lim faoliyatlari orqali tarbiyaviy maqsadlarga erishish imkoniyatlari	119
G'aybullayeva Nafisaxon Nosirjon qizi	
Matematika o'qitishning klassik metodlaridan zamonaviy usullariga o'tish	124
G'ofurov Jamoliddin Xusniddinovich	
Jahon miqyosida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari	128
Hoshimova Dilnoza Boymirzoyevna, Mahmudova Zulfiya Homidovna	
Bo'lajak o'qituvchilarning prognostik kompetensiyasini rivojlantirish tamoyillari.....	131
Ikromova Munisa Sheraliyevna	
Bo'lajak muhandislarni kasbiy tayyorgarligini grafik ma'lumotlar asosida oshirishning didaktik asoslari	134
Jumanazarova Zuhra Qosimjonovna	
Sport va jismoniy tarbiya pedagogikasida innovatsion metodlar	138
Jumanova Iroda Shokirjon qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish	141
Jumayeva Sarvinoz Ilhombekovna	
Talabalarda nutqiy tarkibiy tuzilmalarni shakllantirish texnologiyasi	145
Kiyamova Maxbuba Sultanovna	
Innovatsion yondoshuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning amaliy jihatlari	148
Mamadiyurov Jamol	
Ingliz tili matnlarini o'rganishda 6-sinf o'quvchilarining grammatik kompetensiyasini oshirish va tatbiq qilishning samarali usullari.....	152
Sharipova Firuza Mehriddinovna	
Kar va zaif eshituvchi yuqori sinf o'quvchilarining axborot kompetensiyasini rivojlantirish modeli	155
Tursunov Hojiakbar Hamidullo o'g'li	
Maktabgacha ta'limda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim – pedagogik muammo sifatida.....	159
Xallokova Maksudaxon Ergashevna	
Altruistik xulq-atvorning shaxsiy va ijtimoiy determinantlari.....	162
Xatamova Ferangiz Ibodulloevna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik mahoratini teatr pedagogikasi vositalari orqali rivojlantirishning xorijiy va milliy tajribasi	166
Xudoyberganova Matluba Qulsoxatovna	
Refleksiv yondashuvning ta'lim jarayonidagi o'rni va afzalliklari.....	170
Yodgorova Gulrux Farhodovna	
Совершенство методики формирования компетентности будущих студентов-искусствоведов в условиях цифрового образования.....	174
Юлдашев Эргаш Сабинович	
O'z-o'zini rivojlantirish tushunchasi va uning pedagogik mohiyati.....	177
Kudenov Temurbek Maxsetbaevich	
Boshlang'ich sinf o'qish darslarida hikoya janrini o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish dolzarb muammo sifatida	180
Ergasheva Shoxida Nurmuxammadovna	
Ingliz tili darslarini interaktiv tashkil etishda raqamli ta'lim vositalarining o'rni va metodik yondashuvlar	185
Raxmatullayeva Barno Baxtiyor qizi	
The Effectiveness of Using Podcasts to Enhance Listening Comprehension and Vocabulary Acquisition in Secondary School English Classes.....	189
Meliboyev Zuxriddin Isroil ugli	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	O'zbekiston tarixi darslarida pedagogik improvizatsiyani texnologiyalashtirish va raqamlashtirish imkoniyatlari 192 Ergasheva Muhayyoxon G'anijonovna
	Tasviriy faoliyat vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning samaradorligi..... 196 Arslanova Umidaxon Komiljon qizi
	Baxtli pedagoglar sirlari yoki kasbdagi subyektiv farovonlik 201 Adilova Zulfiya Djavdatovna
	Ayollarning siyosiy faolligini oshirishda gender kvotalarining o'rni 204 Abdukaxorova O'g'iloy Isroiljon qizi
	The Content of Developing Students' Communicative Culture Through a Bilingual Approach 207 Abdukhalilova Feruzakhon Ulugbek kizi
	Maktabgacha yoshdagi nutqida kamchiligi bo'lgan bolalar so'zlashuv nutqini shakllantirishda o'yin texnologiyalaridan foydalanish ahamiyati..... 210 Abdullayeva Ugiloy Djurayevna
	Chet tili intellektual va kasbiy rivojlanish kaliti 214 Aripova Sayida Abdulaxatovna
	Raqamli etiket: zamonaviy ta'limda yangi madaniyat talabi 217 Rasuljon Atamuratov
	Raqamli xiyonat: zamonaviy munosabatlar va sodiqlik inqirozi..... 221 Azizova Shodiya Utkur qizi
	Badiiy tarjimada leksik birliklarning lingvomadaniy aspektlari 224 Mardiyeva Maxbuba Shavkatovna
	O'quvchilarda funksional savodxonlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan dasturiy platformani pedagogik loyihalash..... 228 Obloqulov Sulaymon Maxmayusuf o'g'li
	Kurashchilar orasida jarohatlarning oldini olish: reabilitatsiya va profilaktik uslublar 232 Ochilova Sarvinoz Salim qizi
	Xalq og'zaki ijodi vositasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirishga tayyorlashning pedagogik-psixologik jihatlari 236 Oxunova Nozimaxon Mirzag'ulom qizi
	Loyiha asosidagi o'qitish orqali yoshlarda liderlik qobiliyatini rivojlantirish usullari..... 239 Risvayeva Charos Zaydilla qizi
	Maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'yinlar vositasida o'rgatishga qaratilgan mashq va topshiriqlarning samaradorligi 242 Toshniyozova Dildora, Meliyeva Nargizaxon
	Bo'lajak o'qituvchilarni tarixiy va ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatini rivojlantirish modeli 245 Tursunova Dilnoza Adhamjon qizi
	Shaxs rivojlanishida pedagogika va psixologiyaning o'rni 248 Umirova Guldon Jamoliddin qizi
	Toshkent shahri havosi ifloslanishining sabablari va oldini olish choralari 251 Ungalov Akmal Navruzovich
	Sun'iy intellekt asosida tuzilgan interaktiv platformalar va ulardan foydalanuvchi tajribasi 254 Xabirova Zulfiya Anvarbekovna
	Talabalar ijtimoiy faollik indeksini rivojlantirishda tyutorlik faoliyatining o'rni va ahamiyati 257 Xamrakulov Jasurbek Muxammadjon o'g'li
	Hozirgi davr pedagogikasida sharqona ta'limning ahamiyati..... 260 Yuldasheva Mastura Islamovna
	Пословицы и поговорки как отражение картины мира 263 Алламбергенова Шахноза Садатдиновна
	Raqamlashtirish sharoitida talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini rivojlantirishda mustaqil ta'limning o'rni 268 Abdumannopov Muhammadsahib Muhammadyusuf o'g'li
	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy-kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlar..... 272 Khadicha Mukhamadiyeva Karomatovna



Zamonaviy didaktik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning analitik va ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirish.....	277
Mo'minova Gulhayo Turg'unboy qizi	
Kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari	280
O'rinova Nilufar Muhammadovna	
Aholi o'rtasida yoshlarning pedagogik intervensiyalar orqali ilmiy faolligini oshirish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish metodikasi.....	286
Raximov Xasanboy Kamoliddin o'g'li	
Buyuk ipak yo'li – yangi geosiyosiy va iqtisodiy aloqalarning tarixiy asosi sifatida.....	290
Tugalova Madina Erkin qizi	
Ilk maktabgacha yoshdagi bolalarda sensor tarbiya.....	293
Umarova Muyassarxon A'zamjonovna	
Rus tilida o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari	297
Xanova Dilrabo	
Didactic Possibilities of Teaching English in Primary Schools Based on 3D Interactive Technologies	303
Kholiqova Lutfiya Umurzoqovna	
Raqamli dasturiy vositalari asosida organik kimyo fanini o'qitish jarayonlarini loyihalashtirish modeli	306
Ametova Guljamila Elbrusovna	
Talabalarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishning amaliy asoslarini takomillashtirish	310
Baydjanov Bekzod Xaitboyevich	
Aksiologik yondashuv asosida o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishning til o'rganish jarayonidagi ahamiyati.....	314
Choriyeva Feruza Amrullayevna	
Ibrayim Yusupovning "Saksovu" she'rini o'qitish metodikasi	317
Darmenov Allayar Abdilxaq uli	
Innovatsion ta'lim sharoitida talabalarning madaniyatlararo kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi....	320
Ergasheva Anbar Shaymardan qizi	
Oiladagi zo'ravonlik: sabablari, oqibatlari va psixologik yondashuvlar	324
Jo'rayeva Kaniza Akbarali qizi	
Darsda talabalar nutqiy qobiliyatini shakllantirish masalalari.....	329
Kamoliddinova Maftuna Xusniddin qizi	
Nodavlat ta'lim tashkilotlari o'quvchilarida kreativlikni shakllantirishni boshqarish	334
Nasriddinov Xasan Baxtiyor o'g'li	
Nutq nuqsoniga ega bolalarni maktabga tayyorlashda psixologik aspektlar va pedagogik yondashuvlar ...	339
Normatova Maftuna Kengash qizi, Kamolova Gulshoda Jobir qizi	
Talabalarni ma'naviy tarbiyalash diagnostikasining psixologik va pedagogik manbalardagi talqini	346
Saotmuratova Zebo Yuldash qizi	
OTM talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlari.....	350
Tokumbetova Mexribonu Shavkat qizi	

TALABALARNI MA'NAVIY TARBIYALASH DIAGNOSTIKASINING PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK MANBALARDAGI TALQINI

Saotmuratova Zebo Yuldash qizi

Termiz davlat universiteti, 1-kurs doktranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarning ma'naviy tarbiyasini shakllantirishda diagnostikaning ahamiyati va uni aniqlash usullari psixologik hamda pedagogik manbalar asosida yoritiladi. Muallif ma'naviy tarbiya tushunchasi, uning mazmuni va shakllanish bosqichlarini tahlil qiladi. Shuningdek, ma'naviy tarbiya darajasini aniqlashda qo'llaniladigan zamonaviy yondashuvlar va baholash mezonlari bayon etiladi. Maqolada talabalarning ma'naviy holatini o'rganishda foydalaniladigan ilmiy metodlar haqida amaliy tavsiyalar ham berilgan.

Kalit so'zlar: ma'naviy tarbiya, diagnostika, psixologik yondashuv, pedagogik nazariya, talaba shaxsi, baholash mezonlari, tarbiyaviy jarayon.

Abstract: This article examines the role of diagnostics in shaping students' spiritual education, based on psychological and pedagogical sources. The author analyzes the concept, content, and stages of spiritual development, as well as modern approaches and assessment methods used to evaluate students' spiritual and moral levels. The article also provides practical recommendations for using scientific methods in studying students' spiritual condition.

Key words: spiritual education, diagnostics, psychological approach, pedagogical theory, student personality, assessment criteria, educational process.

Аннотация: В статье рассматривается значение диагностики в процессе формирования духовного воспитания студентов на основе психологических и педагогических источников. Автор анализирует понятие духовного воспитания, его содержание и этапы формирования, а также современные подходы и методы оценки уровня духовности обучающихся. Также даны практические рекомендации по применению научных методов в изучении духовного состояния студентов.

Ключевые слова: духовное воспитание, диагностика, психологический подход, педагогическая теория, личность студента, критерии оценки, воспитательный процесс.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimi oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri – talabalarda nafaqat bilim va ko'nikmalarni, balki ularning ichki dunyosi, ma'naviy-estetik qarashlari va axloqiy fazilatlarini shakllantirishdan iboratdir. Ma'naviy tarbiya bugungi globallashuv va axborot oqimi kuchaygan bir davrda inson shaxsining ijtimoiy barqarorligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri sifatida qaralmoqda. Talabalarning ma'naviy dunyosini yuksaltirish, ularni jamiyatda faol, ongli va mas'uliyatli fuqaro sifatida tarbiyalash oliy ta'lim tizimining muhim yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, ma'naviy tarbiyaning holatini o'rganish, aniqlash, baholash va takomillashtirishga xizmat qiluvchi diagnostika usullarini ishlab chiqish hamda ularni amaliyotga joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Diagnostika – bu talabaning axloqiy va ma'naviy rivojlanish darajasini aniqlashga xizmat qiluvchi ilmiy asoslangan usullar va vositalar majmuasidir. Bu orqali tarbiyaviy jarayonning natijadorligini oshirish, shaxsiy yondashuvni kuchaytirish hamda tarbiya uslublarini takomillashtirish imkoniyati yuzaga keladi. Psixologik va pedagogik manbalarda ma'naviy tarbiya tushunchasiga berilgan talqinlar xilma-xil bo'lib, ular talabaning axloqiy ideallar, milliy qadriyatlar, estetik qarashlar hamda ijtimoiy munosabatlarga nisbatan ongli yondashuvini shakllantirish jarayoniga urg'u beradi. Ayniqsa, shaxs rivojida ma'naviy ehtiyojlar, ong, his-tuyg'ular va ijtimoiy tajribaning o'zaro bog'liqligi psixologik jihatdan chuqur o'rganiladi. Pedagogik manbalarda esa bu jarayonni rejalashtirish, amalga oshirish va baholash metodlari asoslanadi. Mazkur maqolada talabalarni ma'naviy tarbiyalash bo'yicha diagnostika jarayonining nazariy asoslari, psixologik va pedagogik manbalarda



berilgan talqinlari, shuningdek, ularni o'rganishda qo'llaniladigan usullar tahlil qilinadi. Bundan tashqari, ta'lim muassasalarida ma'naviy tarbiya samaradorligini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ham ilgari suriladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Talabalarni ma'naviy tarbiyalash masalasi nafaqat milliy, balki xorijiy pedagogik va psixologik tadqiqotlarda ham dolzarb mavzulardan biri sifatida e'tirof etilib, bu borada turli nazariy yondashuvlar va amaliy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, "ma'naviy tarbiya", "shaxsiy rivojlanish", "axloqiy qadriyatlar", "diagnostika va monitoring" kabi tushunchalar zamonaviy tarbiya metodologiyasining asosiy kategoriyalaridan biriga aylanmoqda. Xorijiy olimlardan L. Kolberg (1969) tomonidan ishlab chiqilgan axloqiy rivojlanish nazariyasida shaxsning ma'naviy kamolot bosqichlari tizimli tarzda tahlil qilingan bo'lib, bu nazariya hozirgi kungacha ta'lim tizimida ma'naviy holatni baholashda qo'llanib kelinadi. A. Maslou (1954) esa inson ehtiyojlari ierarxiasini asoslab, shaxsning ma'naviy rivoji eng yuqori bosqich – o'zini namoyon qilish bilan bog'liqligini ta'kidlagan. Ushbu yondashuvlar orqali talabada ijtimoiy va axloqiy ong shakllanishi, o'z-o'zini anglash, mas'uliyat hissining kuchayishi ilmiy asosda yoritilgan ^[2].

Mahalliy pedagog va psixolog olimlardan M. Mirziyoyeva, N. To'rayev, R. Abdug'afforov, S. Toshboev, D. Ubaydullayevlarning ilmiy izlanishlarida talabalarda milliy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy tarbiya yo'nalishlari, uning shakllari, metodlari hamda diagnostik usullari chuqur o'rganilgan. Jumladan, N. To'rayevning "Yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda pedagogik yondashuvlar" nomli ishida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va tarbiya modeli asosida o'quvchi va talabalar bilan ishlash texnologiyalari ko'rsatib o'tilgan. Pedagogik diagnostika sohasida esa T. Yakubov va G. Normatovalarning ishlari diqqatga sazovordir. Ularning tadqiqotlarida ma'naviy tarbiya sifatini aniqlovchi mezonlar, ko'rsatkichlar tizimi, test va so'rovnoma asosidagi baholash vositalari taklif etilgan. Bu esa ta'lim muassasalarida talabalar holatini tahlil qilish va ularni rivojlantirish bo'yicha aniq strategiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

So'nggi yillarda chop etilgan maqola, monografiya va metodik qo'llanmalarda, xususan, "Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning pedagogik asoslari", "Talabalar ma'naviy holatini aniqlash usullari" kabi ishlarda diagnostikaning zamonaviy uslublari, shaxsiy yondashuv, reflektiv tahlil, ijtimoiy-psixologik portret yaratish kabi ilg'or metodlar o'rganilgan. Ayniqsa, baholashda kombinatsiyalashgan metodlar – test, intervyu, kuzatuv, portfoliolar asosida olingan ma'lumotlar sinteziga asoslanish samarali natija bergani ilmiy jihatdan isbotlangan. Xulosa qilib aytganda, mavjud adabiyotlar talabalarni ma'naviy tarbiyalashni tizimli, bosqichma-bosqich amalga oshirish, ularning ma'naviy rivojlanish holatini baholashda zamonaviy diagnostik yondashuvlardan foydalanish bo'yicha boy nazariy va amaliy materiallar bazasini taqdim etadi. Mazkur maqolada esa bu yondashuvlar milliy ta'lim kontekstiga mos ravishda tahlil qilinib, diagnostikani o'quv-tarbiya jarayonining ajralmas qismi sifatida qarashga alohida e'tibor qaratiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolani yozish jarayonida talabalarni ma'naviy tarbiyalash holatini chuqur tahlil qilish, diagnostika jarayonining zamonaviy yondashuvlarini aniqlash maqsadida bir nechta ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini qiyosiy tahlil, kuzatuv, empirik ma'lumotlar yig'ish, kontent-tahlil va so'rovnoma metodlari tashkil etdi. Ushbu yondashuvlar orqali psixologik va pedagogik manbalarda talabalarning ma'naviy tarbiyasiga berilgan talqinlar o'rganildi va tahlil qilindi.

Birinchidan, qiyosiy tahlil usuli yordamida O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarida amal qilayotgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar dasturlari, "Ma'naviyat soatlari" mazmuni, darsdan tashqari tadbirlar ssenariylari, shuningdek, xalqaro tajribalarda qo'llanilayotgan ma'naviy tarbiya strategiyalari o'zaro solishtirildi. Bu orqali ma'naviy tarbiyaning asosiy tamoyillari va baholash mezonlaridagi umumiylik hamda farqlar aniqlandi ^[4].

Ikkinchidan, kuzatuv metodi asosida ayrim oliy o'quv yurtlarida talabalar bilan olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy ishlarga bevosita guvoh bo'linib, pedagoglarning tarbiyaviy yondashuvi, talabalar ishtirokidagi faoliyatlar, ularning fikr bildirish va bahs-munozaralarda qatnashish darajasi o'rganildi. Kuzatuv jarayonida shaxsiy yondashuv, milliy qadriyatlarga asoslangan muloqot hamda motivatsion usullar alohida qayd etildi.

Uchinchidan, kontent-tahlil metodi orqali ma'naviy tarbiya va uning diagnostikasiga oid psixologik va pedagogik adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar, dissertatsiyalar) hamda o'quv-uslubiy materiallar tahlil qilindi. Ayniqsa, shaxsiy rivojlanish, axloqiy-irodaviy sifatlar, ijtimoiy mas'uliyat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarining talqini bilan bog'liq jihatlar chuqur o'rganildi.

To'rtinchidan, so'rovnoma usuli asosida O'zbekistonning turli hududlaridagi 3 ta oliy ta'lim muassasasida o'qiyotgan 400 nafardan ortiq bakalavriat talabasi o'rtasida maxsus tuzilgan ijtimoiy-pedagogik so'rovnoma

o'tkazildi. So'rovnoma orqali talabalar orasida ma'naviy qadriyatlarga nisbatan munosabat, axloqiy mezonlar, ma'naviy tarbiya samaradorligi va uning o'quv jarayoniga integratsiyasi holati haqida ma'lumotlar olindi. Natijalar statistik jihatdan tahlil qilinib, maqolada asoslangan xulosa va tavsiyalar berishga imkon yaratdi [6].

Yuqoridagi metodlar asosida olingan ma'lumotlar tizimlashtirilib, maqolada ilmiy asoslangan tahliliy yondashuv amalga oshirildi. Shu orqali talabalarni ma'naviy jihatdan kamol toptirishda diagnostikaning roli, baholash mezonlari, psixologik-pedagogik yondashuvlar, shuningdek, milliy kontekstga mos zamonaviy tarbiyaviy texnologiyalar aniqlab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Olib borilgan tahlil va kuzatuvlar natijasida talabalarni ma'naviy tarbiyalashda qo'llanilayotgan metodik yondashuvlar, diagnostika usullari va ularning samaradorligi chuqur o'rganildi. Analitik tahlil asosida quyidagi asosiy natijalar aniqlanib, ilmiy xulosa chiqarildi:

Birinchidan, talabalarni ma'naviy tarbiyalashda shaxsga yo'naltirilgan, ijtimoiy-psixologik muvozanatni ta'minlovchi, axloqiy qadriyatlar asosida qurilgan yondashuvlar yuqori samara berishini ko'rsatdi. Jumladan, bahs-munozara, rolli o'yinlar, axloqiy dilemmalarni hal qilish, hayotiy holatlar asosida tahlil usullari orqali talabalar o'z shaxsiy pozitsiyalarini shakllantirishga, mustaqil fikrlash va axloqiy qaror qabul qilish ko'nikmalariga ega bo'layotganlari kuzatildi.

Ikkinchidan, ma'naviy tarbiyaning samaradorligi ko'p jihatdan o'quv jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va psixologik diagnostika metodlarini to'g'ri qo'llashga bog'liq ekanligi aniqlandi. Xususan, talabalar bilan ishlashda psixologik suhbat, so'rovnoma, axborotli o'yinlar, "hayot darsi", "ma'naviyat soati" kabi faoliyat turlarining ta'siri ijobiy baholandi.

Uchinchidan, kuzatuv natijalari shuni ko'rsatdiki, ma'naviy tarbiya jarayonida qatnashuvchi talabalar ko'proq o'zaro muloqotga ochiq, faol, tashabbuskor bo'lib, ijtimoiy jarayonlarda ishtirok etishga tayyor bo'lishadi. Ayniqsa, milliy qadriyatlar, Vatanga sadoqat, ota-ona roziligi, adolat va halollik kabi tushunchalarni o'zlashtirgan talabalar o'z guruhlarida yetakchilik fazilatlarini namoyon qilgan.

To'rtinchidan, kontent-tahlil natijalariga ko'ra, so'nggi yillarda chop etilgan ilmiy va uslubiy manbalarda talabalarni ma'naviy tarbiyalash diagnostikasida quyidagi yo'nalishlar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda: axloqiy qarashlarning shakllanish darajasi, shaxsiy javobgarlik, madaniyat va ijtimoiy faoliyatga tayyorgarlik, o'z-o'zini baholash va refleksiya ko'nikmalari. Ushbu mezonlar asosida olib borilgan baholashlar talabalar ma'naviy kamoloti darajasini aniqlashda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

Beshinchidan, o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, pedagoglar ma'naviy tarbiyani samarali amalga oshirishda muammoli vaziyatlardan foydalanish, individual suhbatlar, ijtimoiy loyihalarga jalb qilish va shaxsiy namuna metodini eng samarali deb hisoblaydilar. Talabalar esa ma'naviy tarbiya faoliyatlarining hayotga yaqin bo'lishi, darsliklarda real voqealarga asoslangan misollarning kiritilishi va zamonaviy axborot vositalaridan foydalanishni muhim deb bilishadi.

Bundan tashqari, ayrim muammolar ham kuzatildi: ayrim talabalar ma'naviy saviyalari pastligi, ijtimoiy faol bo'lmasligi, muayyan qadriyatlarga nisbatan befarqligi, ma'naviyat mavzularidagi suhbatlarga qiziqmasligi holatlari qayd etildi. Bu kabi holatlarni bartaraf etish uchun ta'limda faol refleksiv yondashuv, motivatsion psixologik treninglar, guruhviy muhokama va ruhiy-axloqiy maslahatlar zarur ekani aniqlandi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, talabalarni ma'naviy jihatdan tarbiyalashda diagnostika asosida yondashish, ularning ichki ruhiy olami, axloqiy pozitsiyasi va shaxsiy qadriyatlarini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Shaxsga yo'naltirilgan, integrallashgan, madaniy-ma'naviy mazmunga ega faoliyatlar orqali talabalarda sog'lom, ijtimoiy yetuk, ongli fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan ilmiy-tahliliy tadqiqotlar natijasida talabalarni ma'naviy tarbiyalash jarayonida diagnostikaning psixologik va pedagogik asoslari muhim ahamiyat kasb etishi aniqlandi. Xususan, bu jarayonni samarali tashkil etish, shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni qo'llash va zamonaviy tarbiyaviy metodlardan foydalanish orqali talabalarda barqaror ma'naviy pozitsiyani shakllantirish mumkinligi kuzatildi.

Talabalarda ma'naviy qadriyatlarni singdirish, ularni axloqiy mezonlar asosida fikrlashga va ongli harakat qilishga o'rgatishda individual yondashuv asosiy o'rin tutadi. Shuning uchun ham diagnostik yondashuvda har bir talabaning psixologik holati, ichki dunyosi, qadriyatlarga munosabati va ijtimoiy tajribasi inobatga olinishi zarur. Bu esa diagnostika orqali aniq maqsadli, manzilli tarbiyaviy strategiyalarni belgilash imkonini beradi.



Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ma'naviy tarbiyaga doir dars va tadbirlarda muammoli vaziyatlar, bahs-munozaralar va hayotiy holatlarga asoslangan tahliliy mashg'ulotlar orqali talabalar faol fikrlashga va o'z qarashlarini asoslashga o'rgatilmoqda. Ayniqsa, til, tarix, falsafa, adabiyot kabi fanlarda bunday usullarning joriy etilishi ma'naviy tafakkurni shakllantirishda ijobiy samara bermoqda.

Bundan tashqari, milliy qadriyatlarga asoslangan badiiy asarlar, tarixiy shaxslar hayoti, xalq og'zaki ijodi, zamonaviy mediamateriallar orqali olib boriladigan ma'naviy tarbiya vositalarining ta'sir kuchi yuqori ekani isbotlandi. Bunday materiallardan foydalanish talabaning milliy o'zligiga hurmat, Vatanga muhabbat, insoniylik kabi tuyg'ularini shakllantiradi. Tarbiyaviy faoliyatni kuchaytirishda pedagog va psixologlar o'rtasidagi uzviy hamkorlik zarur. Ayniqsa, talaba shaxsini chuqur tahlil qilishda test, so'rovnoma, faol kuzatuv kabi usullar kompleks qo'llanilishi lozim. Bu esa nafaqat tashqi xulq-atvorni, balki ichki motivatsiya va axloqiy qaror qabul qilish jarayonlarini ham o'rganishga imkon beradi.


Zamonaviy raqamli texnologiyalar ham talabalarning ma'naviy kamolotiga xizmat qila oladi. Interaktiv videolar, motivatsion roliklar, onlayn treninglar va vebinarlar orqali olib boriladigan tarbiyaviy ishlar talabalar uchun qiziqarli bo'lib, ularning ishtirokini faollashtiradi. Bu esa ma'naviy ta'sirning chuqurligini ta'minlaydi. Tadqiqot davomida baholash mezonlarining ham takomillashuviga ehtiyoj borligi aniqlandi. Ya'ni, faqat tashqi ko'rinishdagi muomala yoki xulq-atvor emas, balki shaxsning fikrlash uslubi, emotsional ong holati, ijtimoiy faol pozitsiyasi kabi ko'rsatkichlar ham hisobga olinishi lozim. Ana shundagina to'laqonli diagnostik yondashuv amalga oshiriladi.

Xulosa qilib aytganda, talabalarni ma'naviy tarbiyalashda diagnostik yondashuv asosida psixologik va pedagogik manbalarni uyg'unlashtirish, zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, milliy qadriyatlarni chuqur singdirish va shaxsga yo'naltirilgan tarbiyaviy strategiyalarni ishlab chiqish hozirgi davr talabi bo'lib qolmoqda. Ushbu yondashuvlar asosida tashkil etilgan tarbiyaviy jarayon esa yosh avlodni ma'naviy yetuk, axloqan pokiza, jamiyat oldida mas'uliyatli shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдуллаева, Н.Ж. Talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning psixologik-pedagogik asoslari. – Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2021.
2. Yo'ldoshev, Q.Y. Yoshlar ma'naviyati va zamonaviy tahdidlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2019.
3. Ergashev, A. Tarbiyaviy texnologiyalar va zamonaviy yondashuvlar. – Toshkent: TDPU, 2020.
4. Karimova, Z. Psixologik diagnostika asoslari: nazariya va amaliyot. – Toshkent: O'zR FA Psixologiya instituti, 2021.
5. Nishonova, S. Talabalarni axloqiy tarbiyalashda interfaol metodlardan foydalanish. // Pedagogik ta'lim – Ilmiy-amaliy jurnal, 2020, №2.
6. G'aniyeva, D.X. Ta'limda sotsial-psixologik diagnostika va uning metodlari. – Samarqand: SamDChTI, 2022.
7. Abdullayeva, M.M. Ma'naviy tarbiya: an'anaviy va zamonaviy yondashuvlar. – Buxoro: BDU nashriyoti, 2021.
8. Vygotskiy, L.S. Pedagogik psixologiya. – Moskva: Pedagogika, 1991.
9. Sharipov, A.Sh. Talabalar shaxsini shakllantirishda tarbiyaviy faoliyatning o'rni. // Pedagogik innovatsiyalar jurnali, 2023, №1.
10. Hasanboyeva, R. O'zbekistonda ma'naviyat targ'iboti va yoshlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2020.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.